



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Гулчеҳра Агзамова АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲВОЛИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР (17-18-ЮЗЙИЛЛИК ЎРТАЛАРИ).....	5
2. Ильдар Азизов РАЗВИТИЕ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С ПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕЙ ОБСЕ.....	13
3. Farangis Azimova ЎРТА АСРЛАРДА ДАШТИ ҚИПЧОҚДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ-ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ АМУДАРЁ – СИРДАРЁ ОРАЛИГИДАГИ ВОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ..	19
4. Феруза Амонова XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТАРИХИ (БУХОРО АМИРЛИГИ МИСОЛИДА).....	28
5. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	34
6. Фарходжон Исматуллаев O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI.....	41
7. Dilshod Komolov, Shodiyor Do‘smurodov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 yillar misolida).....	49
8. Dilshod Komolov, Murodali Xamdamov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI.....	56
9. Pyosbek Mamatkarimov SOSIALISTIK REALIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI.....	64
10. Yosin Ortiqov, Ra’no Ergasheva QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	69
11. Ибрагимжан Ташматов РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ (История и современность).....	74
12. Aziza Shotemirova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	80



Yosin Abdulboqiyevich Ortikov,
Namangan davlat universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, PhD.
E-mail: yosin-89@yandex.ru
Ra’no Muzaffarbek qizi Ergasheva,
Namangan davlat universiteti
E-mail: ergashevarano42@gmail.com

QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

For citation: Yosin Ortikov, Rano Ergasheva. SOME REFLECTIONS ON THE HISTORY OF THE CITY OF KOKAND. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 1, pp.69-73

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14803480>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qo‘qon shahar hududidagi arxeologik yodgorliklari va shahar tarixining turli davrlarda o‘rganilishi tahlil qilinadi. Qo‘qon shahrining qadimiy xarobalari haqida dastlabki ilmiy ma‘lumotlar XIX asrning oxirlarida paydo bo‘la boshlagan. Bu davrda Qo‘qonning tarixiy yodgorliklari haqida dastlabki tavsiflar yozilgan, ammo ilmiy arxeologik o‘rganishlar hali kengaymagan edi. Bugungi kunda Qo‘qon shahrining arxeologik yodgorliklari, jumladan, uning qal‘asi, eski shahar devorlari va boshqa arxitektura yodgorliklari arxeologik tadqiqotlar orqali o‘rganilmoqda. Arxeologlar Qo‘qonning tarixiy o‘rni, ular orasida nafaqat o‘zbek, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlari bilan bo‘lgan aloqalar, shuningdek, Qo‘qonning madaniy merosi haqida yangi bilimlarni fanga olib kirmoqda. Shaharning arxeologik o‘rganilishi uning tarixini to‘liqroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, bu hududning qadimiy va o‘rta asrlar davrida qanday ahamiyatga ega bo‘lganini anglash imkonini yaratadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, arxitektura yodgorliklari, qurilish materiallari, Teraqo‘rg‘on, Qo‘qon xoni saroyi, marmar, bezak turlari.

Ёсин Ортиков,
Доцент кафедры общественных наук,
кандидат философских наук,
Наманганский государственный университет
Электронная почта: yosin-89@yandex.ru
Ра’но Эргашева,
Наманганский государственный университет
Электронная почта: ergashevarano42@gmail.com

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ ГОРОДА КОКАНДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются археологические памятники, расположенные на территории города Коканд, а также изучение истории города в различные исторические периоды. Первоначальная научная информация о древних руинах Коканда начала появляться в конце XIX века. В этот период были написаны первые описания исторических памятников Коканда, но научные археологические исследования еще не были широко развиты. На сегодняшний день археологические памятники Коканда, включая его крепость, древние городские стены и другие архитектурные памятники, продолжают изучаться археологами. Археологи приносят новые знания в науку о историческом значении Коканда, включая его взаимодействия не только с узбекским народом, но и с другими народами Центральной Азии, а также культурное наследие Коканда. Археологическое исследование города помогает лучше понять его историю и дает представление о значении этого региона в древности и в средние века.

Ключевые слова: Коканд, архитектурные памятники, строительные материалы, Тепакоргон, Кокандский ханский дворец, мрамор, виды украшений.

Yosin Ortikov,

Associate Professor of the Department
of Social Sciences, PhD in Philosophy,
Namangan State University
Email: yosin-89@yandex.ru

Rano Ergasheva,

Namangan State University
Email: ergashevarano42@gmail.com

SOME REFLECTIONS ON THE HISTORY OF THE CITY OF KOKAND**ABSTRACT**

This article analyzes the archaeological sites located in the territory of Kokand city and the study of the city's history during various historical periods. The first scientific information about the ancient ruins of Kokand began to emerge in the late 19th century. During this period, the first descriptions of Kokand's historical monuments were written, but scientific archaeological research had not yet expanded. Today, Kokand's archaeological sites, including its fortress, ancient city walls, and other architectural monuments, are being studied through archaeological research. Archaeologists are bringing new knowledge to science about Kokand's historical significance, including its interactions not only with the Uzbek people but also with other Central Asian nations, as well as Kokand's cultural heritage. The archaeological study of the city helps to better understand its history and provides insights into the significance of this region during ancient and medieval times.

Index Terms: Kokand, architectural monuments, building materials, Тепакоргон, Kokand Khan's Palace, marble, types of decorations.

Kirish:

Qo'qon shahri Farg'ona vodiysining tarixiy va madaniy merosini o'zida mujassam etgan qadimiy maskanlardan biridir. Bu shahar uzoq asrlik rivojlanish tarixi davomida O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va diniy aloqalarda muhim rol o'ynagan. Qo'qonning boy arxeologik yodgorliklari va tarixiy obidalari uning o'tmishdagi mavqeini yorqin aks ettiradi. XIX asrdan boshlab bu hududdagi arxeologik tadqiqotlar boshlanib, bugungi kunda ham davom etmoqda. Ushbu maqola Qo'qonning qadimiy qadamjolari va arxeologik yodgorliklarining o'rganilish tarixiga, shuningdek, ushbu merosning o'ziga xos jihatlariga bag'ishlangan. Maqsad Qo'qonning arxeologik obidalari hamda ularning o'rganilishi haqida ma'lumot berish va ularning madaniy-tarixiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Qo‘qon shahridagi arxeologik yodgorliklar O‘zbekistonning qadimiy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu joy o‘zining tarixiy va madaniy merosi bilan Farg‘ona vodiysining markaziy shaharlari qatoridan joy olgan. Shahar hududida turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar, jumladan, qadimiy inshootlar, qal‘alar, madrasalar, masjidlar va boshqa tarixiy qoldiqlar saqlanib qolgan. Manzilgohning atrofida joylashgan qadimiy qabrlar va nekropol yodgorliklar, hunarmand va savdogarlar o‘z mahsulotlarini sotganligi hamda savdo aloqalar o‘rnatganligi, shahar darvoza va devorlar bilan o‘ralganligi juda katta ahamiyat kasb etgan.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Qo‘qon shahri tarixiga oid maqolada qo‘yilgan masala mohiyati tarixiylik, retrospektiv tahlil, sintez, xolislik kabi tamoyillar asosida yoritishga harakat qilindi.

Tadqiqot natijalari:

Qo‘qon tarixi haqidagi ma‘lumotlar X asrda arab mualliflarining geografiyaga oid asarlarida ham uchragan. Masalan, Abu Is‘hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istaxriy **“Kitab al-Masalik va-l-Mamalik”** (Yo‘llar va mamlakatlar kitobi) asarida bunday deb yozgan edi: “Kimki Xo‘janddan Farg‘onaning asosiy shahri bo‘lgan Axsikentgacha borishni istasa, u Kentdan So‘xga bitta manzil va So‘xdan Xo‘jakentgacha – bitta katta manzil, huvaqanddan Axsikentgacha bir manzil yuradi” [1. B – 7]. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida esa Qo‘qonni Farg‘ona vodiysining muhim shaharlaridan biri sifatida tasvirlaydi. U Qo‘qonning iqlimi, aholisi va geografiyasi haqida o‘z kuzatuvlarini keltiradi. Rossiya mustamlakasi davridagi manbalarda, F. Nazarov, I. Potanin va A. Xoroshxinlarning tadqiqotlari va esdaliklari ma‘lumotlar uchraydi. Bu davrga kelib, Qo‘qon shahri haqida batafsilroq yozma hujjatlar paydo bo‘lgan. Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligi va uning markazi sifatida shahar haqida keng ma‘lumotlar yig‘gan, jumladan, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqidagi ma‘lumotlar.

Qo‘qon xonligi davrida me‘morchilik san‘ati rivojlangan. Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, hammom kabi imoratlar qurilishida Turkiston me‘morchiligiga xos uslublardan foydalanilgan bo‘lsa-da, ayrim o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgan. Bu mahalliy sharoit, qurilish materiallari, qolaversa, urf-odatlar ta‘siridan kelib chiqqan. Masalan, Qo‘qonda barpo etilgan jome masjidi haqida, bir tomonga uzun cho‘zilgan, ustunlari ko‘p va baland joylashgan ayvonli, yarim yopiq, derazalari kam, ya‘ni Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan uslubda qurilgan [3. B – 80].

Ba‘zi rivoyatlarga qaraganda, shaharning nomi Havokent (shamollar shahri) so‘zidan kelib chiqqan. Shahar qurilgan paytda istiqomat qiluvchilar bu yerda shamolning tez-tez bo‘lishini, poyalar, daraxt tanalarining doimiy kuchli shamollar ta‘sirida bir tomonga egilganligini ta‘kidlaydi.

Tarixiy ma‘lumotlarning va hujjatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaharda XIX asrda ishlab chiqarish bilan bog‘liq 250 dan ortiq kasb-hunar turi mavjud bo‘lgan. 40 dan ziyod mahalla kasb-hunar nomi bilan atalgan, zero hunarmandlarning aksariyati alohida mahallalarda istiqomat qilgan. Hunarmandchilik taraqqiy etib, uning ayrim turlari san‘at turlari darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, yog‘och o‘ymakorligi Qo‘qon shahrida rivojlangan.

Qo‘qon Farg‘ona vodiysining muhim shaharlaridan biri bo‘lib, arxeologik yodgorliklarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Bu yerdagi arxeologik yodgorliklari nafaqat o‘zining tarixiy ahamiyatiga ega, balki Markaziy Osiyo madaniyatini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Har bir yodgorlik o‘z vaqtida Qo‘qonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga guvoh bo‘lgan. Manzilgohdagi qadimiy va mashhur yodgorliklardan biri – Tepaqo‘rg‘ondir.

Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra, IV asr oxiri – V asr boshlariga kelib, yodgorlik regional mulkning markazi sifatida shakllangan. Ushbu fikrni yodgorlik shahriston va arkining monumental inshootlari, yarim aylana shakldagi soqchilik burjlari bilan kuchaytirilgan, qalin mudofaa devorlari qoldiqlari aniqlanganligi bilan asoslash mumkin. Xususan, shahar arki 50x50 m o‘lchamda bo‘lib, alohida mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Mudofaa devori joy relyefi tuzilishidan kelib chiqib qurilgan. Devorni qurishda 65x65 sm o‘lchamdagi qolipli paxsadan foydalanilgan bo‘lib, devor doim ta‘mirlanib, kuchaytirib borilgan. Mudofaa devori ikki qatorli mudofaa chizig‘idan iborat o‘ta mustahkam himoya chizig‘ini

tashkil etgan. Devor yarim aylana shakldagi burj bilan kuchaytirilgan. Soqchilar burjining har ikki yonidagi mudofaa devorlari mustahkam qolipli paxsadan terilgan [2. B – 18].

Qo‘qon va uning atrofida olib borilgan qazishmalar shahar tarixini turli bosqichlarda o‘rganish imkonini bergan. **Xususan**, Farg‘ona vodiysi hududidagi eng qadimgi manzilgohlar miloddan avvalgi III–II mingyilliklarga borib taqaladi. Qo‘qon yaqinida topilgan dastlabki moddiy topilmalar bronza davri madaniyatiga oid. Qo‘qon yaqinidagi Erkaktepa arxeologik joyi shaharning ilk rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhimdir. Bu yerda olib borilgan qazishmalar Qo‘qon hududida miloddan avvalgi II asrdan boshlab odamlar yashaganini ko‘rsatadi.

Qo‘qon hududidan topilgan turli arxeologik topilmalar, jumladan, turli davrlarga oid sopol idishlar va bezaklar shaharning madaniy taraqqiyotini ko‘rsatadi. Turli hunarmandchilik anjomlari, metal ashyolar esa Qo‘qonning qadimdan hunarmandchilik markazi sifatida ahamiyatga ega bo‘lganini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda Qo‘qon hududidagi arxeologik tadqiqotlar nafaqat shaharning o‘tmishini o‘rganishga, balki turizm va madaniy merosni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Qo‘qon Xonligi davri va undan oldingi davrlarga oid topilmalar mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yoritishda katta ahamiyatga ega.

Qo‘qonning o‘rta asrlarga oid qismlari, jumladan, shahar qal‘asi va ko‘hna mahallalari, arxeologik tadqiqotlar orqali o‘rganilgan. Qo‘qonda bunyod etilgan eng yirik inshootlar qatoriga shahar devori va xon o‘rdasini kiritish mumkin. Shaharning ajralmas qismi bo‘lgan, muhim me‘moriy yodgorlik hisoblangan shahar devori hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. Shahar devori haqida Qo‘qonda bo‘lgan F.Nazarov, I.Potanin, A.Xoroshxin kabi rus elchilarining esdaliklaridan ma‘lumot olishi mumkin. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan Xudoyorxon o‘rdasi XIX asrga oid bo‘lgan muhim me‘moriy obida hisoblangan. O‘rdaning qurilishida Mir Ubaydullo usta, Usta Soli hoji, Mullo Suyarqul, Fozilxoja, Usta So‘fi Yo‘ldosh kabi qo‘qonlik yoki boshqa hududlardan taklif etilgan usta hamda naqqoshlar bilan minglab xonlik aholisi vakillari ishtirok etganlar [3. B – 81].

Qo‘qondagi maqbaralar xonlar, sayyid va xo‘jalar qabrlari ustida barpo qilingan va ularning qurilishi hamda ta‘minlanishi savobli ishlardan hisoblangan [8. B – 76]. Shuningdek, maqbaralar qurdirish obro‘ orttirish vositasi ham bo‘lgan. Farg‘ona vodiysida XVIII – XIX asrlarda qurilgan maqbaralarning ichki ko‘rinishida XI – XII asrlarga xos an‘analar kuzatilgan.

Me‘morchilik tarixida jamoat binolari sirasiga kiruvchi hammomlar alohida o‘rin egallagan. Hammomlar pishiq g‘ishtdan, bir necha gumbazli qilib qurilgan va ular egasining nomi bilan atalgan. Me‘morchilikning rivojlanishi savdo-sotiq munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan inshootlar qurilishida ham kuzatilgan. Xonlik hududlarida markaziy yo‘llar bo‘ylab rabot va karvonsaroylar faoliyati davom etgan, bozorlar rivojlangan. Asosiy qurilish materiallari yog‘och, temir, pishiq yoki xom g‘isht, yupqa sopol g‘isht, ganch, marmar, xarsang tosh, soz tuproq va ohaktosh kabilari bo‘lgan [5]. Temir va yog‘och kam bo‘lganligi bois qurilishida ko‘proq pishiq yoki xom g‘isht, ganch, tosh, loy, somon, ohak ishlatilgan. Binolar poydevoriga xarsangtosh yoki marmartosh yotqizilgan. Binolarning umumiy tuzilishi va rejalashtirilishida an‘anaviylik saqlanib qolgan bo‘lsada, Qo‘qon me‘morchiligida tashqi aloqalarning ham ta‘siri sezilgan.

Qo‘qon shahrining arxitektura yodgorliklari O‘rta Osiyo madaniyatining ulkan merosidir. Bu yodgorliklar nafaqat shaharning tarixiy va madaniy ahamiyatini aks ettiradi, balki o‘zining betakror arxitekturasi bilan ham ajralib turadi. Bu inshootlarning eng diqqatga sazovorlari orasida saroylar, masjidlar, madrasalar va boshqa diniy inshootlar ham mavjud. Ular orasida Qo‘qon Xoni saroyi, Jome masjidi, Mehrabon masjidi, Oq Saroy, Tilla Shayx madrasasi va Xonqayit masjidi kabi yodgorliklar juda ham mashxur.

Qo‘qon Xon saroyi – saroyning qurilishi Muhammad Alixon davrida, Xudoyor tug‘ilishidan oldin boshlangan. Noma‘lum sabablarga ko‘ra, tez fursatlarda saroy qurilishi to‘xtatilgan. 1863-yilda Xudoyorxon davrida qayta tiklangan va to‘rt yil davomida qurib bitkazilgan [7. B – 443]. Maydoni 4 ga.ni tashkil etgan, poydevorning balandligi 3 m. bo‘lgan. Saroy dekoratsiyasida ganch o‘ymakorligi, rasm chizish, moviy sopol koshinlar chetlari bo‘ylab Qur‘oni karimdan parchalar yozilgan. U yerning sharqiy qismida bir vaqtlar madrasaga tegishli bo‘lgan 100x30 m. atrofidagi masjid joylashgan edi [4].

2009-yilda saroyni qayta tiklash ishlari boshlangan. Bosh bino fasadining o'ng tomonini tiklash ishlari yakunlangan. Kichkina va katta taxt xonalarining devorlarini, shuningdek, boshqa xonalarni bezab turgan bezaklar ranglarning asl yorqinligini olgan. Yog'och o'ymakorliklari bir nechta yangi eshiklar va 8 ta ustunni qayta yasaganlar. Muzeyning infratuzilmasi yaxshilangan.

2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qo'qon shahrining arxitektura qiyofasi va shahar infratuzilmasini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga [6] asosan Qo'qon saroy majmuasining ikkinchi restavratsiyasi maydonni obodonlashtirish bilan rejalashtirilgan. Saroy atrofiga milliy naqshlar tushirilgan metal panjaralar o'rnatilgan, saroyning shimoli-g'arbiy qismi buzilgan bo'lib, bunday holatlarni qayta tiklash ishlari keng tarzda olib borilgan.

Jome masjidi – Qo'qondagi me'moriy yodgorlik bo'lib, masjid ulkan xonaqoh va uni uch tomondan o'rab olgan 98 ta yog'och ustunli keng ayvon hamda minoradan iborat bo'lgan. Bino devorlari ganchkori, ayvon shifti to'sinlari islmiy va girih naqshlar, ustunlar o'yma naqshlar bilan bezatilgan, tagkursilari marmardan ishlangan. Minora konussimon shaklda, yuqori qismi 6 qirrali qafas tuynuk va qubba bilan bezaksiz holatda qurilgan. Minora yuqorisiga aylanma zina orqali chiqilgan.

Xulosalar:

Qo'qon shahri Farg'ona vodiysining bebaho arxeologik va madaniy merosiga ega hududlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharning tarixiy obidalari, jumladan, Tepaqo'rg'on, Qo'qon Xon saroyi va Jome masjidi, o'zining yuksak me'moriy uslubi va hunarmandchilik an'analari bilan ajralib turadi. Ushbu obidalar nafaqat shahar tarixini o'rganish, balki butun Markaziy Osiyo madaniy aloqalarini tushinishda ham muhim manba hisoblanadi. Mazkur maqola orqali Qo'qon shahrining arxeologik tadqiqotlari davomida aniqlangan yangi ma'lumotlar O'zbekistonning boy madaniy merosini yanada chuqurroq o'rganish uchun zamin yaratadi. Bu yodgorliklarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish esa har birimizning zimmamizdagi mas'uliyatdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т. “ФАН”. 1996. – 240 б.
2. Pardayev M. So'x havzasida antropogen landshaftning tashkil topishi va urbanizatsiya jarayonlari. – Т. 2024. – 50 b.
3. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. – Namangan. "Namangan". 2014. – 86 b.
4. Xudoyorxon o'rdasi // uz.wikipedia.org
5. Xudoyorxon saroyi // meros.uz
6. "Qo'qon shahrining arxitektura qiyofasi va shahar infratuzilmasini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori // lex.uz
7. Бартольд В.В. История Коканда и Ферганской долины / Соч. Т. III. – Москва, 1965.– С. 462-466.
8. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань: 1886.
9. Ortikov, Y. A. (2023). National Language as a Factor of Ethno-Cultural Identity in the Dungans of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(5), 11-16.
10. Yosin, A. O. (2023). CHANGES IN THE ETHNO-CULTURAL IDENTITY OF DUNGANS OF UZBEKISTAN (IN THE EXAMPLE OF THE DUNGAN LANGUAGE). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 144-151.
11. Ortikov, Y. A. (2021). Ethno cultural identity and its formation. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 516-522.
12. Ortikov, Y. (2024). ISLAM IN DUNGAN CULTURE. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (9(46)). 91-98.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000